

# **TERMIZ SHAHRIDA YANGI ZAMONAVIY MEHMONXONA ISH BOSHLADI**



## **TERMIZ SHAHRIDA YANGI ZAMONAVIY MEHMONXONA ISH BOSHLADI**

Bugun, 31-mart kuni Termiz shahrida xalqaro standartlarga uyg'un shakldagi yangi mehmonxona – "GOLD PALACE" foydalanishga topshirildi.

Tantanali ochilish tadbirida viloyat hokimi o'rinosi Jo'rabet To'raev, Termiz shahar hokimi Isroil Xudoyberdiev, shahar sektor rahbarlari hamda jamoatchilik vakillari ishtirok etdilar.

Termiz shahrining Shifokor mahallasi Ibn Sino ko'chasida joylashgan mazkur mehmonxona tadbirkor Zohid Mallaev tomonidan o'zi ishlab chiqqan investitsiya loyihasi asosida qurilgan bo'lib, 24 ta nomerdan iborat. Ushbu mehmonxonada yangidan 12 ta ishchi o'rni yaratilgan.

Mehmonxonada avtoturargoh, sport maydonchasi (billiard va stol tennisi), 25 kishilik konferents-zal va boshqa qulayliklar mavjud.











